



## O'ZBEKISTON QUROLI KUCHLARI HARBIY MADANIYATI VA HARBIY IJTIMOYIY ISHNING RIVOJLANTIRISH - MILLIY ARMIYAMIZ YUKSALISHINING OMILI SIFATIDA

**Hashimova Gulsina Ismoyilovna**

*Farg'ona davlat*

*universiteti Ijtimoiy ish kafedrası*

*katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada harbiy ijtimoiy ish, harbiy madaniyat, uning mohiyati, harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda Vatan harbiy madaniyati va ijtimoiy himoyaning roli haqida fikrlar bildirilgan. O'zbekiston Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibi milliy-ma'naviy qadriyatlar, shu jumladan, harbiy ijtimoiy ishning o'rni muhim ekanligini anglab yetishi, uni ilmiy nuqtai nazariyadan o'rganish dolzarb ekanligi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *harbiy madaniyat, harbiy ijtimoiy ish, milliy armiya, harbiy an'ana, insonparvarlik, shaxsiy tarkib, ijtimoiy sharoit, ijtimoiy himoya.*

Развитие военной культуры и военно-социальной работы Вооруженных Сил Узбекистана как фактор подъема нашей национальной армии

Хашимова Гулсина Исмаиловна

Ферганский государственный университет

старший преподаватель

кафедры Социальной работы

Аннотация: В данной статье высказываются мнения о военно-социальной работе, военной культуре, ее сущности, роли военной культуры Родины и социальной защиты в воспитании военнослужащих. Информация о том, что личный состав Вооруженных Сил Узбекистана осознает важность национально-духовных ценностей, в том числе роль военно-общественной работы, и что ее изучение важно с научной точки зрения.

Ключевые слова: воинская культура, военно-социальная работа, национальная армия, воинские традиции, гуманизм, личный состав, социальные условия, социальная защита.

The development of military culture and military social work of the Armed Forces of Uzbekistan as a factor in the rise of our national army

Khashimova Gulsina Ismailovna

Fergana State University

Senior teacher of the department of social work



Annotation: This article expresses opinions on military social work, military culture, its essence, the role of the military culture of the Motherland and social protection in the education of military personnel. Information that the personnel of the Armed Forces of Uzbekistan is aware of the importance of national and spiritual values, including the role of military and social work, and that its study is important from a scientific point of view.

Key words: military culture, military social work, national army, military traditions, humanism, personnel, social conditions, social protection.

Mamlakatimiz keng ko'lamda rivojlanib, mustahkamlanib borayotgan bir paytda yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va etnik guruh vakillarining ma'naviy-axloqiy va madaniy yuksalishining jadallashuviga xizmat qiladigan qadriyatlarni qaror toptirish va uzluksiz takomillashtirib borish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon esa, milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi, vatanparvarlik va milliy g'urur, davlat va ijtimoiy-etnik manfaatlar, fuqaro burchi va shaxs mas'uliyati bilan bog'liq muammolarni ilmiy-siyosiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasida "...harbiy xizmatchilarga ezgulik va rahmdillik an'analarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom, ularning madaniyat va san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ushbu maqsadda adabiyot, kino, teatr, tasviriy san'at imkoniyatlaridan keng foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish"[1] asosiy maqsadlaridan biri sifatida qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan, burchiga sadoqatli, yuqori professional harbiy xizmatchilarni tayyorlash maqsadida quyidagilar:

harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimni tuzish;

harbiy xizmatchilarning ongu tafakkuriga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirish;

dinning asl mazmun-mohiyatini teran ochib berish orqali harbiy xizmatchilarga ezgulik va rahmdillik an'analarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, mustaqil fikr va sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash asosiy vazifalari etib belgilandi[1].





Mazkur metodologik asosga ega bo'lgan g'oya mustaqil O'zbekiston Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibi harbiy madaniyatida milliy-ma'naviy qadriyatlar, shu jumladan harbiy ijtimoiy ishning o'rni muhim ekanligini anglab yetish, uni ilmiy nuqtai nazariyadan o'rganish uchun dolzarbligini ko'rsatadi. Shunday ekan, jamiyat madaniyatining negizi bo'lgan habiy madaniyat, harbiy ijtimoiy ish haqida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

Harbiy ijtimoiy ish – harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatdan bo'shatilgan fuqarolar, ularning oila a'zolari, fuqarolik xodimlarining moddiy-maishiy sharoitlari va imtiyozlarini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, tarbiyaviy, ijtimoiy va boshqa tadbirlar tizimi[2].

Umumiy shaklda - bu qo'shnlarning kundalik faoliyati, qurolli to'qnashuvlarda yoki jangovar hududda jangovar vazifalarni bajarish, tartib va harbiy intizom, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlari va huquqlarini amalga oshirish, shu asosda ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, qonunlarni saqlash jarayonida shaxsiy xizmat vazifalarini samarali bajarishi uchun ijtimoiy sharoitlar yaratish faoliyati.

O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilar bilan ijtimoiy ish O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari bilan yaqin hamkorlikda amalga oshiriladi. Davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, harbiy qo'mondonlik va nazorat organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati, harbiy mansabdor shaxslar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining qonun hujjatlarida belgilangan huquq va imtiyozlarini to'g'ri amalga oshirishi, shu asosda zarur ijtimoiy sharoitlar yaratish, jangovar shaylik, qonun ustuvorligi va harbiy intizomni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holatini yuqori darajada saqlash masalalarini yanada samarali hal etish uchun xizmat qiladi.

Harbiy ijtimoiy ishning asosiy maqsadi harbiy xizmatchilar va fuqarolik xodimlariga o'z vazifalarini samarali bajarishga imkon beradigan ijtimoiy sharoitlarni yaratishdir. Harbiy xizmatchilarga ijtimoiy sharoitlarni to'g'ri va sifatli yaratilishi esa, o'z - o'zidan davlatda harbiy madaniyatning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi[5].

Harbiy madaniyat - harbiy xizmatchilarning turmush tarzi, qadriyatlari va me'yorlari to'plami, tili, marosimlari, ramzlari, moddiy, badiiy madaniyati, san'ati[6].

Harbiy madaniyatni Qurolli Kuchlar tarkibisiz tassavvur qilib bo'lmaydi. Vatan himoyalash — xalqning ishonchini, an'alarini, urf-odatlarini, madaniyatini himoyalashdir. Bizning Qurolli Kuchlar tarkibi, madaniyatning doimo yetakazib beruvchi eng muhim manba hisoblanadi. Chunki O'zbekiston Qurolli Kuchlar tarkibining asosiy maqsadlaridan biri odamlarni vatanga sodiqlik va harbiy burchi asosida tarbiyalash bilan birga komil insonni shakllantirishdan iborat bo'lib, harbiy madaniyatning ilmiy nuqtai nazaridan o'rganishning dolzarbligi quyidagilar bilan asoslanadi:

birinchidan, vatan himoyasi tushunchasining milliy va ma'naviy qadriyatlar bilan aloqadorligi mudofaa siyosatini idrok etish madaniyatini ma'naviy va ma'rifiy



qadriyatlar asosida namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi, uni o'rganish jamiyatda mudofaaviy ongni rivojlantirishda muhim o'rin tutishi bilan bog'liq.

Ikkinchidan, O'zbekistonda milliy armiyaning shakllanishi, undagi harbiy islohotlar fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning mudofaaviy ong va madaniyatini shakllantirish, uni yanada yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoriga kirganligi bilan ham bog'liq. Bu esa xalqimizga xos bo'lgan milliy qadriyatlar tizimida vatan himoyasi, vatanparvarlik an'alarining jamiyat siyosiy madaniyatida aks etishi va mudofaaviy ong va madaniyat mexanizmlarini har tomonlama o'rganishni, ilmiy siyosiy nuqtai-nazardan asoslab berishni taqozo qiladi.

Uchinchidan, milliy istiqloq g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillariga asoslangan holda mudofaaviy madaniyatga yangicha qarash va yondoshuvlar shakllanayotganligi harbiy madaniyatida milliy-ma'naviy qadriyatlarning tutgan o'rni va rolini alohida ilmiy ob'ekt sifatida siyosiy hayot bilan bog'liq tarzda chuqurroq o'rganishni ijtimoiy fanlar oldiga muhim vazifa sifatida qo'yimoqda.

To'rtinchidan, milliy qadriyatlar tizimida harbiy ijtimoiy ish, harbiy madaniyatning tutgan o'rni va roli masalalari va ularning o'zaro munosabati muammolari harbiy nuqtai nazaridan hozirgacha o'rganilmagan.

Beshinchidan, milliy davlatchilikni mustahkamlanishi bilan bog'liq jarayonlar jamiyat hayotida mudofaaviy ongni, harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirilmoqda.

Harbiylik madaniyati harbiy madaniyatdan ko'ra keng tushuncha, harbiylik madaniyati- harbiylik bilan bog'liq elementlarni o'z ichiga oladi. Ingliz tilida harbiy madaniyat tushunchasi, odatda alternativsiz "military culture" so'z birikmasi bilan ifodalanadi. Bir vaqtning o'zida "jangchi" va "harbiy kadr", tegishli ravishda "askar" va "professional askar" tushunchasi kabi ifodalanadi. Harbiy madaniyat tushunchasini hisobga olgan holda armiya madaniyatini bir-biriga tenglashtirish maqsadga muvofiqdir. Harbiy va armiya madaniyati tushunchalari sinonim tarzda ishlatiladi va bu tushuncha jamiyatdagi keng harbiy madaniyat tushunchasi bilan cheklanadi, chunki keyingi paytda bu madaniyat nafaqat armiya, balki harbiy sohaga oid jamiyat tafakkuri bilan ham bog'liqdir[3].

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, harbiy madaniyat insonyat tomonidan xarbiy ishlar sohasida moddiy va ma'naviy "sohalarda yaratgan hamma narsani anglatadi va zamonlar va avlodlarning o'rtasidagi aloqalarini tiklaydi degan fikrga kelishimiz mumkin.

O'zbekiston ijtimoiy madaniyatida ham harbiy madaniyat harbiy nuqtai nazardan juda muhim o'rin egallaydi. Harbiy madaniyatning mamlakat va millat mustaqilligida ham o'rni beqiyos. Harbiy madaniyatning falsafiy-madaniyat tushunchasi mavjud bo'lib, harbiy madaniyat jamiyat va mamlakatdagi har bir fuqaroning milliy hayot tarzi va tarixiy rivojlanishdagi o'rnini, davlatning qurolli himoyasini tashkillashtirishdagi o'rnini kuchaytiradi.





Hozirgi yangilanish zamonida jamiyatning harbiy madaniyati va harbiy ijtimoiy ishni o'rganish jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Harbiy madaniyat va harbiy ijtimoiy ishni mohiyatini to'g'ri anglash, milliy iftixordek ulug'vor va teran tuyg'uning paydo bo'lishiga olib keladi. Mana shunday ezgu tuyg'u va bunyodkor g'oyalar ongimiz va qalbizdan joy olishi uchun xalqimiz yaratgan betakror madaniyat va ma'naviyatni egallashimiz juda muhimdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasi. Toshkent. 2018.4 avgust.-3b.
2. Морихин В.И. Традиции офицерского корпуса в России. Научно-исторические исследования. -М.: Граница, 2013.-113с.
3. Гребенков В. Н.Тенденции эволюции военной культуры современного российского общества. -М.: Прогресс, 2016.-113с.
4. Исмойиловна, Х. Г. (2020). ҲАРБИЙ АНЪАНАЛАР, УРФ-ОДАТЛАР ВА МАРОСИМЛАР-ЖАМИЯТ ҲАРБИЙ МАДАНИЯТИНИНГ НЕГИЗИ. ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ, 2(3).
5. Ҳошимова, Г. И. (2020). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРОЛЛИ КУЧЛАРИ ҲАРБИЙ МАДАНИЯТИНИНГ ТАРИХИЙ АСОСЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(5).
6. Исмойиловна, Х. Г. (2016). Фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятни оширишда ҳуқуқийнашрларнинг ўрни ва роли. Евразийский научный журнал, (5), 145-149.
7. Ismoyilovna, H. G. (2023). O 'ZBEKISTON QUROLLI KUCHLARI TIZIMIDAGI HARBIY IJTIMOiy ISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 2293-2300.